

DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANIB BOLALARDA FIKRLASH QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISH

*Turan Xalqaro Universiteti
Gumanitar fanlar va Pedagogika
fakulteti Maktabgacha ta'lim
yo'nalishi 4- kurs talabalari
Imomova Fotima Xolmatjon qizi
Xoshimova O'giloy Abdug'ani qizi*

Annotatsiya. maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yinning bola faoliyatining asosiy turi sifatida, o'yinning kelib chiqish tarixi, o'yin faoliyati nazaryasi go'dakning bir yoshgacha davrdagi psixologik xususiyatlari, o'yinning kuchi tanishtirish masalasining ilmiy nazariy ahamiyati, uni o'rganilganlik darajasi va hozirgi vaqtdagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: o'yin, faoliyat, tarbiyachi, bolalar, vazifa, tarbiya, ta'lim, aloqa, ijodiy faoliyat.

Аннотация. В данной статье игра как основной вид детской деятельности в дошкольных образовательных организациях, история игры, теория игровой деятельности, психологические особенности ребенка до года, научно-теоретическое значение приобщения к силе. игры, ее уровень исследования и важность в настоящее время.

Ключевые слова: игра, деятельность, воспитатель, дети, задание, воспитание, обучение, общение, творческая деятельность

Abstract. the game as the main type of children's activity in preschool educational organizations, the history of the game, the theory of game activity, the psychological characteristics of the child under the age of one, the scientific theoretical importance of introducing the power of the game, its the level of research and its importance at the present time are highlighted.

Keywords: game, activity educator, children, task, upbringing, education,

communication, creative activity.

Kirish Maktabgacha yoshdagi bola faoliyati rang-barangdir. Ular hammadan ko'proq o'yinni yoqtiradilar. Chunki o'yin maktabgacha yoshdagi bolalar uchun asosiy va eng sevimli mashg'ulotdir. O'yin - bolalarning o'zaro munosabatini yo'lga soladi, xis-tuyg'ularini rivojlantiradi, erkini mustahkamlaydi. Shuning uchun ta'lim-tarbiya berish jarayoniga o'yin elementlarining, muammoli holatlarning kiritilishi mashg'ulotlarni jonlantiradi. Didaktik o'yinlar-ta'lim xarakteriga ega bo'lib, bolalar bilimining mustahkamlanishiga va kengayishiga, ularni umumlashtirishga, tizimga solishga yordam beradi. Ta'lim va tarbiya berish jarayonida har xil o'yinlardan, og'zaki, stol ustida, harakatli, ijodiy, hayolan sayohat, o'yin viktorinadan foydalanish, muammoli xolatlar keltirib chiqarish, yechimini topish, bahslashish, natijaga erishish mashg'ulot samaradorligini oshiradi. Didaktik o'yinning xususiyatlari shundaki, ta'limga aloqador masalalar, mashg'ulot jarayonida o'yin asosida, uning qoidalariga muvofiq tarzda olib boriladi. Bola o'ynar ekan, u nimanidir o'rganishni o'ylab o'tirmaydi. Lekin o'yin jarayonida nimanidir o'rganadi. Didaktik o'yin mazmuni ta'limning muhim qismi sifatida kiritilgan bo'ladi. Didaktik o'yin bolalarning aqliy qobiliyatini o'stiradi. Bola o'yin jarayonida faollashadi. O'yin vazifalari diqqatni jamlashni, o'yin mazmunini anglashni talab qiladi. O'yin bolani ta'lim-tarbiya olishga, zarur ko'nikma hosil qilishga undaydi. Didaktik o'yinlar bolalarning ma'naviy va axloqiy kamolotida, ularning mukammal inson bo'lib kamol topishida tarbiyaviy ta'sir qudratiga ega. O'yin timsolida bolalar jamoa bo'lib yashashga, uyushqoqlikka, birgalikda ijod qilishga, ishlashga va mustaqillikka o'rganadilar.

Asosiy qism Bolalarning xis-tuyg'ularini shakllantirishga, ayniqsa ularning sezgi a'zolari (sezish, ko'rish, tinglash va boshqalar) faoliyatini oshirishga yordam beradi. Uning idroki, zehni, xotirasi, irodasi mustahkamlana boradi. Diqqati, topqirligi ortib boradi. Olgan bilimlarni o'z faoliyatida mehnat, o'yin jarayonida sinab ko'rish ishtiyoqi paydo bo'ladi. Didaktik o'yinlardan asosan bolalarning aqliy faoliyatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi vosita sifatida foydalanish bilan bir qatorda, nutqni o'stirish, atrof-muhit bilan tanishtirish, xisoblash ko'nikmalarini

hosil qilish, ekologik va estetik tarbiyani amalga oshirishda keng foydalaniladi. Bolalar bilan o'tkaziladigan har bir didaktik o'yin ularda aniq bilimga, narsa va buyumlarga qiziqish uyg'otishi, bolalar diqqatini jalb qila olishi lozim. Bolalar oldiga qo'yilgan vazifa bolalar tushunchasiga mos bo'lmasa, ularni qiynab qo'ysa, u vaqtda o'yin o'z qimmatini yo'qotadi. Didaktik o'yinda bevosita takrorlash metodlaridan foydalanish lozim. Bundan maqsad ayrim muammolarni xal qilishdir, ya'ni mashg'ulotlarda faol qatnashgan bolalar bilan birga sust, loqayd bolalarni ham o'yinga jalb qilib olingan bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdan iboratdir. Ta'limning o'yin jarayonini, ayniqsa ochiq havoda amalga oshirish bolalarda kuzatuvchanlik va ijodkorlikni rivojlantirib, ularni ranglarni, shakllarning katta-kichikligini, xidini, ta'mini aniqlashga, umuman sensor qobiliyatini taraqqiy ettirishga o'rgatib boradi. Jismoniy mashqlar o'tkazish chog'ida ham turli she'riy yoki topishmoqli o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bolalarda mustaqil bajarish malaka va ko'nikmalarini hosil qilish, ularning zihnini o'stirish, tez hisoblash ko'nikmalarini rivojlantirish, ijodiy fikr mahsulini o'stirish, qiziqishlarini oshirish maqsadida mashg'ulotlarni zamonaviy usullardan foydalanib o'tish davr talabidir. Matematika, nutq o'stirish, atrof-olam bilan tanishtirish, mehnat mashg'ulotlarida "Sahnalashirilgan", "O'yin-musobaqa", "Teatrlashtirilgan", "Sayohat", "Konvert" mashg'ulotlaridan foydalanish samarali natija beradi. O'yin jarayonidagi bolalar faol faoliyatining psixik taraqqiyot uchun ahamiyati shundaki, bolalarning turli sifat va fazilatlarini o'yin jarayonida faqat namoyon bo'libgina qolmasdan, bunda sifat va fazilatlar mustahkamlanadi, o'zlashtiriladi. Shuning uchun psixologiya nuqtai nazardan oqilona ya'ni to'g'ri tashkil qilingan o'yin bola shaxsini har tomonlama o'stiradi va shuning bilan birga bolaning butun psixik jarayonlarida – sezish, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, xayol va irodani ildam rivojlanishiga yordam beradi. O'yin o'z mohiyati jihatidan katta kishilarning hatti – harakatlari va xulq-atvorlariga faol taqlid qilishdan iborat bo'lishi tufayli bolalarda ma'naviy sifatlarning mustahkamlanishi uchun va odob – axloq qoidalarini bilib olishlari uchun keng imkoniyatlar beradi. Maktabgacha yoshdagi bola o'yin jarayonida tabiblik yoki

muallimlik rolini bajarayotgan bo'lsa, shu kasbga tegishli barcha sifatlarni namoyon qilishga intiladi. Ular o'yinga juda berilib ketsalar, bajarayotgan rollariga xos sifatlarni shunchalik samimiy, ijodiy tarzda namoyon bo'ladi. Bolalar uchun o'yin mazmunining hech bir chegarasi yo'q. Maktabgacha yoshdagi bolalar kattalar hayotini hamma tomonlarini o'z o'yinlarida aks ettira oladilar. O'yinning ahamiyati bola shaxsining o'sib kamolotga yetishiga ta'sir ko'rsatishdan iboratdir. O'yin har bir yosh bosqichida bolaning tevarak atrofdagi dunyoni va kishilar o'rtasidagi munosabatlarni bilib olishni ifodalaydi. Bolaning moddiy dunyoga, kishilarga o'z-o'ziga munosabati o'zgarayotgan o'yinda namoyon bo'ladi. Bolalarning ehtiyojlari, istak, qiziqish (xavas) lari bevosita o'yinda ifodalanadi. O'yin bolalarning xayolparastligi tufayli narsalar va kishilar dunyosini ular uchun ma'qul tomonga "o'zgartirish" imkoniyatini beradigan faoliyatdir. Ma'lumki, bolalarning asosiy vaqti o'yin bilan o'tadi. O'yin maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanishining muhim vositasi, ularning asosiy faoliyati bo'lib hisoblanadi. O'yin jarayonida bola shaxsi faoliyat subyekti sifatida shakllana boshlaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagogik jarayonlarda o'yinning tutgan o'rni alohida bo'lib, o'yindan bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berishda keng foydalaniladi.

- o'yin bolalarning mustaqil faoliyati bo'lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo'ladi.

- o'yin maktabgacha yoshdagi bolalar hayotini tashkil etish shaklidir.
- o'yin bolalarni har tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir.
- o'yin bolalarga ta'lim-tarbiya berishning metod va usulidir.

Bolalar o'yini o'zining mazmuni, xususiyati va tashkiliy jihatlariga egadir. O'yin bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalashda maktabgacha ta'lim tashkiloti ishida katta o'rin egallaydi. O'yinda yosh organizmga xos bo'lgan talab va ehtiyojlar qondiriladi, xayotiy faollik ortadi, birdamlik, tetiklik, quvnoqlik tarbiyalanadi. Shuning uchun ham bolalarni tarbiyalashda o'yin munosib o'rin egallaydi. Atoqli trener va shifokor E.A.Arkin o'yinni "ruhiy vitamin" deb bekorga

aytmagan. Bolalarning to'laqonli jismoniy rivojlanishi va salomatligini mustahkamlash uchun harakat faolligining turli shakllaridan foydalaniladi. O'yin jarayonida bolaning jismoniy o'sishi uchun muvofiq sharoit yaratish nihoyatda muhimdir. Bunga erishmoq uchun o'yinlarning bolalarga yetarli suratda zavq tug'dirishini, ularda faollik hosil bo'lishini, bu o'yinlar turli hil harakatlarni o'z ichiga olishini, serharakat o'yinlar ketidan kam harakatli o'yinlarga o'tilishini ta'minlash zarur. Harakatli o'yinlar bolalarda quvnoqlikni oshirishga yordam beradi, o'zaro munosabatlar, xis-tuyg'ularni tarbiyalaydi. O'yin qoidalarini bajara olish malakalari, jasurlik, odillik kabi axloqiy sifatlar tarbiyalanadi

Xulosa O'yin orqali bola olamni, undagi narsa hodisalarni, ularga xos xususiyatlarni o'rganibgina qolmay, balki nutq so'zlashga, mustaqil fikrlashga xayol qilishga, ijod qilishga, muomala madaniyatiga o'rganadi. Ko'pchilik psixologlar hamda pedagoglar o'yinning psixologik masalalari bilan bevosita shug'ullanib, o'yinlarning bolani psixik kamol toptirishdagi ahamiyatiga alohida to'xtalib o'tganlar. Ma'lumki, o'yin bola uchun voqelikni aks ettirishdir. Bu voqelik bolani qurshab turgan voqelikdan ancha qiziqarlidir. o'ymning qiziqarliligi uni anglab etishning osonligidadir. Kattalar hayotida faoliyat, xizmat, yumush qanday ahamiyatga ega bo'lsa, bola hayotida o'yin ham xuddi shunday ahamiyat kab etishi mumkin. Jahon psixologiyasi fanida to'plangan boy ma'lumotlarga asoslanib, quyidagicha mulohaza yuritish mumkin. Masalan, eng sodda psixik jarayondan eng murakkab psixik jarayongacha hammasining eng muhim jihatlarini shakllantirishda o'yinlar katta rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.X.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. Pedagogika darslik.T.: O'zbekiston faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
2. Qodirova F.R, Toshpo'latova SH.Q, Kayumova N.M., Agzamova M.N. "Maktabgacha pedagogika" T.: Tafakkur, T- 2019. Darslik.
3. D.R. Babaeva. "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi" T.: "Barkamol avlod fayz" 2018 y. Darslik.
4. Takomillashtirilgan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi, T- 2022 y.

5. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги – инсон манфаатларини таъминлаш тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. “Ўзбекистон”

6. Азизова Зироат. “CONCEPTUAL FUNDAMENTALS OF PREPARING CHILDREN FOR SOCIAL PROTECTION” *Yosh tadqiqotchi Jurnal* 1 (5) 404-410, 2022